



**BUXORO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



*2023- yil yanvar-dekabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(65) 223-75-63)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1202,9 mln. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 21,9 mln. AQSH dollariga yoki 1,8 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr 2023 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: 1 202,9 -1,8 %

(2022- y.: 1 224,8)



Saldo

2023- y.: -618,3 (2022- y.: -611,7)




Eksport

2023- y.: 292,3 -4,7%

(2022- y.: 306,5)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2023- y.: 910,6 -0,8 %

(2022- y.: 918,2)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 292,3 mln. AQSH dollariga (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,7 % ga kamaydi) va import hajmi 910,6 mln. AQSH dollariga (0,8 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -618,3 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2022 yil yanvar-dekabr oylari, AQSH dollari)

Rossiya TSA – 413,5 Eksport: 87,9 Import: 325,6  34,4 %	XXR TSA – 288,1 Eksport: 18,8 Import: 269,3  24,0 %	Turkmaniston TSA – 87,1 Eksport: 11,3 Import: 75,9  7,2 %	Turkiya TSA – 74,3 Eksport: 21,8 Import: 52,5  6,2 %	Qozog‘iston TSA – 64,6 Eksport: 17,4 Import: 47,2  5,4 %
Afg‘oniston TSA – 54,2 Eksport: 53,9 Import: 0,3  4,5 %	Eron TSA – 39,7 Eksport: 5,2 Import: 34,6  3,3 %	Germaniya TSA – 29,5 Eksport: 7,1 Import: 22,4  2,5 %	Tojikiston TSA – 24,1 Eksport: 21,5 Import: 2,7  2,0 %	Qirg‘iziston TSA – 15,7 Eksport: 12,1 Import: 3,6  1,3 %

Buxoro viloyati jahonning 70 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (34,4 %), XXRda (24,0 %), Turkmanistonda (7,2 %), Turkiyada (6,2 %) va Qozog‘istonda (5,4 %) qayd etilgan.



BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)


	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Rossiya Federesiyasi	337,3	336,6	413,5
	<i>Eksport</i>	52,9	77,0	87,9
	<i>Import</i>	278,1	259,6	325,6
	XXR	117,2	150,3	288,1
	<i>Eksport</i>	35,6	13,2	18,8
	<i>Import</i>	81,6	137,2	269,3
	Turkmaniston	209,3	223,5	87,1
	<i>Eksport</i>	6,4	9,3	11,3
	<i>Import</i>	202,9	214,2	75,9
	Turkiya	123,3	93,4	74,3
	<i>Eksport</i>	32,2	26,2	21,8
	<i>Import</i>	91,1	67,2	52,5
	Qozog'iston	41,5	113,9	64,6
	<i>Eksport</i>	7,5	24,4	17,4
	<i>Import</i>	34,0	89,5	47,2
	Afg'oniston	15,2	62,2	54,2
	<i>Eksport</i>	14,6	61,9	53,9
	<i>Import</i>	0,6	0,3	0,3
	Eron	133,4	51,6	39,7
	<i>Eksport</i>	103,2	13,8	5,2
	<i>Import</i>	30,2	37,8	34,6
	Germaniya	56,6	27,3	29,5
	<i>Eksport</i>	1,6	3,1	7,1
	<i>Import</i>	55,0	24,2	22,4
	Tojikiston	13,5	14,1	24,1
	<i>Eksport</i>	8,3	9,6	21,5
	<i>Import</i>	5,2	4,5	2,7
	Qirg'iz Respublikasi	8,1	35,1	15,7
	<i>Eksport</i>	7,0	31,8	12,1
	<i>Import</i>	1,1	3,3	3,6

Davomi

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Litva	7,0	13,0	14,5
	<i>Eksport</i>	3,4	2,1	0,5
	<i>Import</i>	3,5	10,9	14,0
	Hindiston	3,7	4,5	12,9
	<i>Eksport</i>	0,6	0,7	7,9
	<i>Import</i>	3,1	3,8	5,0
	Polsha	7,4	9,1	11,1
	<i>Eksport</i>	4,9	3,2	5,0
	<i>Import</i>	2,4	5,9	6,1
	Belarus	6,0	8,4	9,4
	<i>Eksport</i>	0,6	0,8	0,2
	<i>Import</i>	5,4	7,6	9,2
	Koreya Respublikasi	14,6	5,9	8,0
	<i>Eksport</i>	0,6	0,7	0,2
	<i>Import</i>	14,0	5,2	7,8
	B.A.A	1,9	3,8	6,2
	<i>Eksport</i>	1,4	3,2	2,2
	<i>Import</i>	0,5	0,6	4,1
	Niderlandiya	1,5	8,2	5,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,1
	<i>Import</i>	1,5	8,1	5,0
	Ozarbajjon	6,8	5,0	4,9
	<i>Eksport</i>	1,0	2,5	4,0
	<i>Import</i>	5,7	2,5	0,9
	Estoniya	3,8	3,6	4,8
	<i>Eksport</i>	3,4	3,4	1,6
	<i>Import</i>	0,5	0,2	3,2
	Ukraina	8,8	7,4	4,1
	<i>Eksport</i>	2,5	4,8	3,5
	<i>Import</i>	6,3	2,6	0,6



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani 33,2 % ulush bilan 399,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Olot tumani 1,0 % ulush bilan 12,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 624,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 158,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 466,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




BUXORO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

Rossiya – 34,4



Turkmaniston – 7,2




Qozog'iston – 5,4



Tojikiston – 2,0



Qirg'iz
Respublikasi – 1,3



Belarus – 0,8



Ozarbajjon – 0,4



Ukraina – 0,3



Moldova – 0,1




Armaniston – 0,0



Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (34,4 %), Turkmaniston (7,2 %) hamda Qozog'iston (5,4 %) davlatlari bilan qayd etildi.

BUXORO VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



 Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 503,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 117,8 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 385,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



BUXORO VILOYATI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 265 taga yetdi va ular tomonidan 292,3 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



BUXORO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	306,5	292,3	98,2	95,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35,4	20,4	132,1	57,6	11,5	7,0
Ichimliklar va tamaki	2,3	3,1	135,3	-	0,8	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22,0	11,1	17,9	50,2	7,2	3,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	62,2	59,0	3,2 m.	94,9	20,3	20,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	0,1	-	-	0,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	8,4	7,6	4,5 m.	90,1	2,7	2,6
Sanoat tovarlari	123,3	126,8	130,8	102,8	40,2	43,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	31,8	30	129,8	94,3	10,4	10,3
Turli xil tayyor buyumlar	8,3	15,3	3,0 m.	185,0	2,7	5,2
Xizmatlar	11,8	19,0	66,7	161,1	3,8	6,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,0 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (43,4 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (20,2 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (10,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.




BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-dekabr)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.
Rossiya Federasiyasi	77,0	87,9	130,0	114,2	1	1
Afg'oniston	61,9	53,9	4,2 m.	87,1	2	2
Turkiya	26,2	21,8	81,4	83,2	4	3
Tojikiston	9,6	21,5	115,7	2,2 m.	8	4
Xitoy	13,2	18,8	37,0	142,4	7	5
Qozog'iston	24,4	17,4	3,2 m.	71,3	5	6
Qirg'iziston	31,8	12,1	4,5 m.	38,0	3	7
Turkmaniston	9,4	11,3	146,9	120,2	9	8
Hindiston	0,7	7,9	116,7	11,3 m.	23	9
Germaniya	3,1	7,1	193,7	2,3 m.	15	10
Eron	13,8	5,2	13,4	37,7	6	11
Polsha	3,2	5,0	65,3	156,2	13	12
Azərbayjon	2,5	4,0	2,5 m.	160,0	17	13
Ukraina	4,8	3,5	192,0	72,9	10	14
Vetnam	2,8	2,7	121,7	96,4	16	15
Pokiston	3,6	2,5	2,1 m.	69,4	11	16
B.A.A.	3,2	2,2	2,3 m.	68,8	14	17
Estoniya	3,4	1,6	100,0	47,1	12	18
Bangladesh	-	0,8	-	-	-	19
Buyuk Britaniya	0,5	0,6	166,7	120,0	26	20



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr, mln.AQSH doll.)*



2022- y.

2023- y.

Viloyatda eksport tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **23,7** foiz ulush bilan **69,3** mln. AQSh dollarni, Jondor tumani **0,9** foiz bilan **2,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida 45,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan 33,4 % ga yoki 22,7 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (50,6%) va Rossiya (24,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 15,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan 46,3 % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 1,1 mln. AQSH dollari 1,6 ming tonna  7,1 % ↓	Karam 1,8 mln. AQSH dollari 11,8 ming tonna  11,7 % ↓	Shaftoli, gilos, o'rik va olxo'ri 1,2 mln. AQSH dollari 2,3 ming tonna  7,8 % ↓	Pomidor 2,5 mln. AQSH dollari 4,0 ming tonna  16,2 % ↓
Tariq mln. AQSH dollari ming tonna  ↑	Piyoz 1,4 mln. AQSH dollari 12,5 ming tonna  9,1 % ↑	Mosh 2,3 mln. AQSH dollari 1,1 ming tonna  14,9 % ↑	Qovun tarvuz 0,1 mln. AQSH dollari 0,5 ming tonna  0,6 % ↑



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2023- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha 3 050,0 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 12,5 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (41,1 %), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (41,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 639 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 65 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)





BUXORO VILOYATINING IMPORTI




2023- yil yanvar-dekabr oyida import hajmi **910,6** mln. AQSh dollarini va 2022- yilga nisbatan **99,2** foizni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (**40,0** foiz) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**37,1** foiz) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar- dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 mln. AQSH dollariga kamaydi va 910,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



BUXORO VILOYATININGNING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	918,2	910,6	105,7	99,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulot- lari va tirik hayvonlar	24,8	22,7	93,9	91,3	2,5	2,7
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,1	80,0	15,8	-	-
Nooziq-ovqat xom- ashyo, yoqilg'idan tashqari	30,3	24,0	153,8	79,2	2,6	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'- lash moylari va shun- ga o'xshash material- lar	383,7	337,7	2,0 m.	88,0	37,1	41,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	1,0	100,0	69,2	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	82,5	84,6	154,7	102,6	9,3	9,0
Sanoat tovarlari	66,2	63,2	71,5	95,5	6,9	7,2
Mashinalar va trans- port asbob uskuna- lari	308,3	364,7	66,7	118,3	40,0	33,6
Turli xil tayyor buyum- lar	20,3	12,8	75,2	63,0	1,4	2,2
Xizmatlar	0,4	-	-	-	-	-




BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Rossiya Federasiyasi	259,6	325,6	93,3	125,4	1	1
Xitoy	137,2	269,3	168,1	196,3	3	2
Turkmaniston	214,2	75,9	105,6	35,4	2	3
Turkiya	67,2	52,5	73,8	78,1	5	4
Qozog'iston	89,5	47,2	2,6 m.	52,7	4	5
Eron	37,8	34,6	125,2	91,5	6	6
Germaniya	24,2	22,4	44,0	92,6	7	7
Litva	10,9	14,0	3,1 m.	128,4	8	8
Belorus	7,6	9,2	140,7	121,1	10	9
Koreya Respublikasi	5,2	7,8	37,1	150,0	14	10
Polsha	5,9	6,1	2,4 m.	103,4	12	11
Niderlandiya	8,1	5,0	5,4 m.	61,7	9	12
Hindiston	3,8	5,0	122,6	131,6	17	13
B.A.A.	0,6	4,1	120,0	6,8 m.	28	14
Qirg'iziston	3,3	3,6	3,0 m.	109,1	18	15
Estoniya	0,2	3,2	40,0	16,0 m.	39	16
Tojikiston	4,5	2,7	86,5	60,0	15	17
Latviya	3,2	2,4	4,6 m.	75,0	19	18
Chexiya	0,9	2,1	75,0	2,3 m.	27	19
Yaponiya	0,5	1,7	100,0	3,4 m.	29	20



BUXORO VILOYATI NING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH doll.)



2022- y.

2023- y.


Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **36,9** foiz ulush bilan **335,9** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Olot tumani **0,5** % ulush bilan **4,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 71,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 7,9 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan metallardan tayyorlangan buyumlar (27,0 mln. AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,7 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari (5,3 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.